

**O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY
INVESTITSİYALARNING O'RNI**

Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna

CHDPU Pedagogika fakulteti

Menejment yo'nalishi 24-1 guruh talabasi

sayfiddinovasabina888@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida salmoqlika hissa qo'shib kelayotgan mazkur kunlardagi investitsiyalar va ular yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar hamda natijalar haqida qisqacha bayon etiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya, iqtisodiyotda investitsiyaning o'rni, investitsiyaning turlari, investorlar, xorijiy investitsiya, daromad, foyda.

Kirish

Zamonaviy dunyoda investitsiyalar ko'plab odamlarning hayotiga mustahkam kirib, moliyaviy savodxonlikning ajralmas qismiga aylandi. Chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaqo boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklarini xorijiy investitsiyalar sifatida ko'rish mumkin. Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan tubdan farq qiladi va ular tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Investitsiya kiritadigan davlat, korxona yoki mulkdor shaxs bilan bo'ladigan kelishuvlar foiz stavkalari bilan qaytarish talab qilinadigan kreditlar va qarzlarga talluqli.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan ko'plab korxonalar, xususan, davlatimiz siyosati ham investitsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlikning yillik ishlab chiqarish, foyda olish jarayonlariga targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu borda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham shu yili 22-oktabr kuni alohida taqdimot o'tkazib, ushbu taqdimotda zaruriy tadbirlar va 2024-yilgi investitsiyalar holati bilan tanishtirib o'tdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekiston iqtisodchi olimlardan D.G'.G'ozibekov va T.M.Qorialiyevlar „Investitsiyani daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatiga jalb qilinadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyiklar” deb ta'riflaydilar.

N.V.Igoshinning fikricha, „ Investitsiya-pul mablag'larini sarmoyani qayta yaratish, uni saqlab turish va kengaytirish yo'lida sarflashdir. Eng umumiy ko'rinishda oladigan bo'lsak, „Investitsiya” - bu bo'sh pul mablag'larini moliyaviy va moddiy boyliklarning turli shakllariga sarflashdan iboratdir”. Umuman olganda, iqtisodiyotda investitsiyalar kapitalning jamg'arilish jarayonidir.

Shu sababli investitsiya siyosatini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning bir qismi bo'libgina qolmay, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning asosiy resurslaridan biri deyish mumkin.

Olib borilgan izlanishlar va statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 1612 tani tashkil etdi va keying besh yilda korxonalar soni 1.1 barobarga oshdi. Yetakchi o'rinni 575 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. O'zbekistonda 2024-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 107.1 trln so'mni tashkil etgan. Ma'lum bo'lishicha, shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 68.9 foizga yetgan.

O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar:

1. Xitoy-23 foiz
2. Rossiya-13.8 foiz

3. Turkiya-8.5 foiz
4. Saudiya Arabistoni-7.2 foiz
5. BAA-4.8 foiz
6. Germaniya-3.8 foiz

O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov va Osiyo inffratuzilmaviy investitsiyalar banki vitse-prezidenti Konstantin Limitovskiy bilan bo'lgan uchrashuvda tomonlar energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash va suv ta'minoti sohalarida istiqbolli loyihalarni hayotga tadbiq qilish jarayonini ko'rib chiqishdi. Dastur doirasida yashil energetika, suv ta'minoti, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va infratuzilmaviy rivojlanish kabi jami 2.58 milliard dollarlik 12 ta loyihani moliyalashtirilishi nazarda tutilgan.

Muhokama va natijalar

Modernizatsiyalashib borayotgan jahon iqtisodiyoti standartlariga mos iqtisodiy siyosat tuzish va jamiyat hayotidagi hamda tadbirkorlar faoliyatidagi rivojlanishlarni yanada jadallashtirish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar olib borilishi, yangi innovatsion g'oyalar ishlab chiqilishi zarurdir. Ayniqsa, barcha biznes foliyatlari uchun muhim bo'lgan investitsiyalarga, xususan, xorijiy investitsiyalarga keng yo'l ochib berish ularni ommaga keng targ'ib qilish asosiy vazifalardan biridir. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har bir yil uchun ishlab chiqarilayotgan alohida iqtisodiy dasturlarni yo'lga qo'yilishi va qabul qilingan qarorlarga to'liq amal qilish davlat iqtisodiyoting rivojlanishida asosiy qadamdir. Shu bilan birgalikda tadbirkorlar faqat xorijiy investitsiyalarni biznesga kiritish bilan cheklanibgina qolmay chet davlatlarga o'zlari kiritayotgan investitsiyalari ulushini oshirish va yetakchi davlatlar qatoridan joy egallash uchun olib boradigan say-harakatlari yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil II choragiga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, doimiy ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish kabi masalalar olg'a surilgan.

Faol investitsiya siyosatini davom ettirish, amaldagi ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha strategik va muhim ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri joriy investitsiyalarni faol jalb etish hamda samarali o'zlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni inobatga olgan holda harakatlarni jamlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek buning asosida aholi bandligini, ularning turmush darajasi va sifati oshirilishi bilan bog'liq.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2024-yil 22-oktabr kuni mahalliyashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda aytilishicha, so'ngi yetti yilda O'zbekistonga 78 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar kelgan. DXSH bo'yicha qonun qabul qilinib, mingdan ziyod loyihalar boshlangan. 1 ming 800 turdagi yangi mahsulotni mamlakatda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda barcha tarmoqlarda 140 milliard dollarlik 366 ta yirik loyiha amalga oshirilyapti. Investitsiya loyihalari orasida yiliga 15 milliard dollarlik uskuna, xomashyo va qurilish materiallari olib kelinyapti. Davlat rahbari shularning har birida mahalliy ulushni ko'paytirish mumkinligini ta'kidlaydi. Prezident taqdimotda aytishicha, O'zbekistonga so'ngi yetti yilda jami 78 mlrd, jumladan, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida 23.7 mlrd dollarlik xorij investitsiyasi kirib kelgan. Bu orqali 1800 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarila boshlangan, 120 ta yirik quvvat ishga tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 352.1 trln so'm asosiy kapitalga o'zlashtirili,

2022-yilning mos davriga nisbatan 122.1 foizni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida jami 107.1 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 174.5 foizni tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, 2023-yilga nisbatan O‘zbekistonda kapital investitsiyalar o‘zlashtirish hajmi shu yil sezilarli darajada pasaygan.

So‘ngi besh yil ichida o‘shish suratlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2020-yilda 104.6 foizga yetgan, 2021-yilda biroz pasayib 97.8 foizni tashkil etgan, 2022-yilda ko‘payib, 115.2 foiz kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 174.5 foizni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda davlatimiz Prezidenti ham iqtisodiyotimizga, biznes faoliyatga ulkan e’tibor qaratmoqdalar. Buning yorqin isboti sifatida biz 2024-yilning „Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili“ deb nomlaganida ko‘rishimiz mumkin. Shuni aytishimiz mumkin Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tashkil etilgan, bunga e’tibor qaratilmoqda tadbirkorlikning barcha sohalariga xorijiy investitsiyalarning salmoqlicha hissasi mavjud. Shu bilan bir qatorda mahaliy investitsiyalarning tadbirkorlikda o‘z o‘rni bor. Ammo chet davlati bilan hamkorlikda ish olib borish mamlakat rivoji va biznes jarayoni uchun muhimdir. Agar bir sohada (biznezda) xorijiy investitsiyalar kiritilsa, albatta shu bilan bir qatorda investorlar ham muqobil jalb qilinsa rivojlanish ko‘rsatgichi keskin oshadi. Hozirda barcha sohalar bo‘yicha globallashuv jarayoni keskin avj olgan jahonga faqat mahaliy yoki miliy investitsiyalar, umuman olganda faqat tor doirada to‘xtab qolgan hech bir faoliyat yuksak cho‘qqilar va zafarlarga osonlikcha yetishi qiyin. Shunday ekan xorijiy investitsiyalar, loyihalar va innovatsiyalar bilan almashib ishlash o‘z sohamizda chet el dasturlarini qo‘llash, amalga targ‘ib qilish maqsadga muvofiq qadamlardan biridir.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish orqali Yangi O‘zbekistoni iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR¹

ⁱ 1. „Mintaqalar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish” nomli ilmiy asar. Mualliflar: Egamberdiyev, F.T.Elov, D.A.Xolmirzayev, A.A.Raxmonov, R.N.Babaxodjayev, S.N.Egamberdiyeva, U.T.Mardonaqulov, T.I.Egamberdiyev.

2. <https://lex.uz> sayti Vazirlar Mahkamasining 92-son 14.02.2024 „O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil I choragiga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori.

3. <https://lex.uz> sayti Vazirlar Mahkamasining 286-son 16.05.2024 „O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil II choragiga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori.

4. <https://daryo.uz> sayti 2024.05.09 O‘zbekistoda 2024-yil yanvar-mart oylari bo‘yicha statistika.

5. <https://president.uz> sayti Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-yanvar 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi.

6. <https://lex.uz> sayti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.06.2022 yildagi PF-150-son.